

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2024-4/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2024

Бош муҳаррир:
Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Бош муҳаррир ўринбосари:
Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i> <i>Абдуллаева Муборак Махмудовна, б.ф.д., проф.</i> <i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i> <i>Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i> <i>Аимбетов Нағмет Қаллиевич, и.ф.д., акад.</i> <i>Аметов Яқуб Идрисович, д.б.н., проф.</i> <i>Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.</i> <i>Бобожанова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц.</i> <i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д., проф.</i> <i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i> <i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.</i> <i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i> <i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i> <i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.</i> <i>Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.</i> <i>Жуманиёзов Зоҳид Отабаевич, ф.ф.н., доц.</i> <i>Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.</i> <i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i> <i>Қаландаров Назимжон Назирович, б.ф.ф.д., к.и.х.</i> <i>Каримов Улуғбек Темирбаевич, DSc</i> <i>Қурбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.</i> <i>Қурбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.</i> <i>Қутлиев Учқун Отабаевич, ф-м.ф.д.</i> <i>Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.</i> <i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i> <i>Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.</i> <i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i> <i>Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.</i> <i>Пазиллов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i>	<i>Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.</i> <i>Раматов Бакмат Зарипович, қ/х.ф.н., доц.</i> <i>Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.</i> <i>Рахимов Матназар Шомуратович, б.ф.д., проф.</i> <i>Рахимова Гўзал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц.</i> <i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i> <i>Рўзметов Дилишод Рўзимбоевич, г.ф.н., к.и.х.</i> <i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i> <i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i> <i>Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.</i> <i>Сапаров Қаландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i> <i>Сафаров Алишер Қаримджанович, б.ф.д., доц.</i> <i>Сирожов Ойбек Очилов, с.ф.д., проф.</i> <i>Собитов Ўлмасбой Тожаҳмедович, б.ф.ф.д., к.и.х.</i> <i>Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.</i> <i>Тожибаев Қомилжон Шаробитдинов, б.ф.д., акад.</i> <i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i> <i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i> <i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i> <i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i> <i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i> <i>Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i> <i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i> <i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i> <i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i> <i>Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i> <i>Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.</i> <i>Худойберганаев Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.</i>
--	--

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№4/4 (113), Хоразм Маъмун академияси, 2024 й. – 458 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X
Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abduvahabova M.A. Ingliz folklor matnilarining semiotik xususiyatlari	6
Achilova N.N. Ajdarho timsolining jahon va o'zbek xalqlari adabiyotlaridagi muxtasar talqinlari	8
Akramov I.I. A Comparative analysis of Shakespeare's and Rumi's aphorisms on love	11
Akramov B.Q., Abdullayeva A.U. Fransuz tilida bozor va savdo jarayoni leksikasining ijtimoiy talqini	14
Akramov B.Q., Zaripov J.A. Fransuz tilida tijorat terminoleksikasining lingvomadaniy xususiyatlari	17
Aliyeva S.A. O'zbek geortonimlarining etimologik xususiyatlari	20
Almamatova Sh.T. Abdulla Qahhor hikoyalarida sinonimlarning qo'llanilishi	22
Ataboyev N.B., Ergashova K.I. Inglizcha va o'zbekcha korpuslarda vaqt tushunchasi va ularning semantik tahlili	26
Axmedova G.N. "Yumor (hajv)" leksik birliklari va ularning semantik xususiyatlari	29
Azimbayeva D.A. Conversion in english-uzbek languages and its cognitive features as a linguistic way	32
Bafoyeva N.A. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida mavjud antropindikatorlarning tahlili	35
Bahodirova F.B. Diskurs, stilistika va pragmatika	38
Bekniyozova F.O. Olamning lisoniy manzarasini yaratishning o'ziga xos tamoyillari	41
Bozorova O.Q. O'zbek va ingliz tillaridagi frazeologizmlarda go'zallik konseptining qo'llanilishi	44
Burxonov B.B. Ingliz va o'zbek tillari kasbiy diskursining lingvokognitiv tadqiqi	46
Choriyeva Z.B. O'zbek va ingliz topishmoqlarining badiiy-kompozitsion xususiyatlari	49
Djumakulova D.K., Xoshimxo'jayeva M.M. Tarjimashunoslikda tarjima nazariyasi	52
Djumaeva N. History of investigating functional forms of the verb	54
Djumaeva N., Abdurakhmanova M. Religious picture of the world as an important component of linguistic picture of the world	56
Djumaeva N., Akhmadova N. Some characteristics of fairy-tale discourse	58
Djumaeva N., Murodova M. Diskurs lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot obyekti sifatida	61
Djurayev M.K. Kompyuter lingvistikasi imkoniyatlari va dasturiy texnologiyalar	63
Egamberdiyeva Sh.M. O'zbek va turk allalarida qushlar obrazi	68
Ergashova S.E. Eshqobil Shukur she'riyatida badiiy obraz takomili va badiiyati	70
Eshonqulova F.O. O'zbek va ingliz tilidagi maqollarning yosh va genderga oid xususiyatlari	72
Gafurov B.Z. Studying functional-semantic field of language as a linguistic phenomenon	75
G'ulomova R.R. Sociolinguistic analysis of curses of social groups of uzbek and english intellectuals	78
Hamroyeva Sh.Sh. The pragmatic aspects of translation	81
Haydarov A.A., Alimova M. Tovush talaffuzida ifodalangan konnotativ ma'nolar	84
Haydarova D.I. Nutqiy etiket va uning lisoniy tabiati	87
Ikramova K.Sh. Linguacultural peculiarities of the concept of 'woman' in Uzbek and English literature	90
Imamova G.T. "Boburnoma" asarida forcha o'zlashmalarning qo'llanilishi	92
Inamova D.E., Ismatova M.A. Compiling a parallel corpus for translation research	95
Ishqobilova H. Ingliz va o'zbek tillarida oila konseptining chog'ishtirma tahlili	98
Ismanova O.U. Terminlar unifikatsiyasi	100
Istamova D.S. Lexical, semantic-structural analysis of ecological terms in english and uzbek languages	103
Jomardova D.Q. Tibbiyot reklamalarida apellyativ leksikaning qo'llanilishi	105
Jumaniyazov A., Yusubova Ch. Nom ko'chishi yohud metonimiyalar haqida yana ayrim mulohazalar	108
Karimov R.A., Hamroyeva G. CLIC mualliflik korpusi tahlil metodlari	115
Karimova Yu.A. Lirik she'riyatda Bobur Mirzo siymosi	118
Khasanov M.A. Accent morphonological alternations in modern english	122
Khayrullayeva N.N. Semantic features of economic metaphors	125
Khodjaeva S.S. The problems of translating culture specific words	127
Kobilova A.B. Lingua-culture and the essence of the anthropocentric approach to language	130
Komilova N.S. Badiiy asarda diniy ohanglar talqini	134
Kurbonova N.R., Ikromova N.I. Ted Hyuz ijodi adabiy tanqidchilar nigohida	137
Kurbonov Z.O. Qo'shrabot tuman Mijgon va Tongit qishloqlari toponimikasi haqida ayrim fikr mulohazalar	141
Latipova S. Jo'ra Fozil hikoyalarida ijtimoiy muammolar talqini	144
Mahmudova N., Radjabboeva T. The types of transformations in german syntax	147
Makhmudova S.A. Cognitive aspects of meaning in the novels of James Aldridge	150
Makhsudova X.U. The theory of the origin of the concept of "fashion"	153
Mamajonov M.Yu. Psixolingvistik tadqiqotlar xususida	155
Mamatqulova Z.R. Rishton kulolchilik maktabi kasb-hunar leksikasining generatsiyasi va boyish manbalari	157
Matenova A.K. Ingliz lakunalarning aks etishi xolid xuseini asarlari asosida	159
Matnazarova X.S. Og'zaki diskurs tenorining U.Shekspir tragediyalarida berilishi	162

4. Hilola Yusupova. (2023). Pedagogical humanism in charles dickens' "Oliver Twist". British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 15, 102–107.
5. Hamroyeva Sharifa Shukur Qizi. (2023). The analysis of the english translations of Abdulla Kadiri's "O'tkan kunlar". American Journal of Philological Sciences, 3(05), 82–87.
6. Хамроева, Ш. (2023). Перевод национальных красочных слов (реалий) (на примере английского перевода романа Ойбека «Навой»). *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/8).
7. Rahimov G'. (2016) Tarjima nazariyasi va amaliyoti. "Ozbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
8. Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. – Москва, 1980.
9. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение. – Москва: ЭТС, 2002.

UO'K 808.3

TOVUSH TALAFFUZIDA IFODALANGAN KONNOTATIV MA'NOLAR

A.A.Haydarov, prof., f.f.n., Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

M.Alimova, magistrant, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi nutq tovushlari talaffuzidagi konnotativ ma'nolarning qiyosiy tahliliga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: *nutq tovushlari, konnotativ ma'no, denotativ ma'no, ingerent, adgerent, artikultatsion, akustik, prosodik.*

Аннотация. *В статье проводится сравнительный анализ выражения коннотативная значения в произношении звуков речи в английском и узбекском языках.*

Ключевая слова: *звуков речи, коннотативная значения, денотативная значения, ингерент, адгерент, артикуляция, акустик, просодик.*

Abstract. *The article provides a comparative analysis of connotative meaning in the pronunciation of speech sounds in the English and Uzbek languages.*

Keywords: *speech sounds, connotative meaning, denotative meaning, inherent, adherent, articulation, acoustic, prosodic.*

Aloqa aralashuv jarayonida so'zlardagi har qanday ma'no tovush va tovushlar kompleksi orqali kishilarga yetkaziladi. "So'z, - deb yozadi A. Hojiyev, - o'z qobig'iga ega bo'lgan obyektiv narsa - hodisalar haqidagi tushunchani, ular o'rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatni ifodalay oladigan turli grammatik ma'no va funksiyalarda qo'llaniladigan eng kichik asosiy til (nutq) birligidir".

Darhaqiqat, tovush va ma'no o'zaro munosabatga kirishi so'zni tashkil qiladi va nutq bo'lagi sifatida ishtirok etadi. Tovushlarda ham ma'no bor, ular signallar bo'lib, ularga erkin birlashtirilgan bo'ladi. O'zbek tilidagi *maqol, ko'cha* so'zlarining tovushlar kompleksi orqali berilgan ma'nolari ingliz tilida proverb, street tovushlar kompleksi orqali beriladi. Qiyoslanayotgan tillarda, jumladan, o'zbek tilida unli va undosh fonemalarning talaffuzida variantdoshlik hodisasi mavjud bo'lib, variantdoshlik ularda turli xil konnotativ ma'nolarni hosil qiladi. Qayerda variantdoshlik bo'lsa, u yerda tanlanish, tilda esa konnotativ (ya'ni qo'shimcha) ma'no hosil bo'ladi. Qo'shimcha ma'no nafaqat so'zlarda, balki uni tashkil etgan nutq tovushlariga ham taalluqli bo'ladi. Tilda ikki xil ma'no: denotativ va konnotativ ma'no mavjud bo'lgani holda konnotativ ma'no ikki ko'rinishga ega: ingerent va adgerent. Ingerent konnotativ ma'noda (ohang, cho'ziqlik) mavjuddir. Bu jihatdan qaraganda har bir unli tovush xoh u ingliz tilida, xoh o'zbek tilida bo'lsin o'ziga xos turli xildagi qo'shimcha ma'nolar kasb etadi. Unli tovushlar turli intonatsiya bilan aytilishi, bo'g'in hosil qilishi, urg'u qabul qilishi kabi prosodik xususiyatlarga egaligi bilan farqlanadi. Endi unli tovushlar talaffuzi bilan bog'liq holda paydo bo'luvchi ayrim konnotativ ma'nolar haqida fikr yuritamiz. Ingliz tilidagi unli tovushlar bo'g'in tiplariga ko'ra ajratiladi. Masalan, i [ai] fonemasi yopiq bo'g'inda [i] tovushini, ochiq bo'g'inda esa [ai] tovushini ifodalashi bilan xarakterlanadi. Nutq jarayonida i [ai] unlisini ataylab cho'zib talaffuz qilinishi, unda hayratlanish, ishonchsizlik, taajjub kabi qator konnotativ ma'nolarni yuzaga keltiradi.

Masalan, - Are you very ri:ch?

- No living from hand to mouth. (B. Shaw)

Nafaqat so'zlashuv nutqida, balki badiiy nutqda i [ai] unlisining so'z boshida takror kelishini kuzatish mumkin.

I-I am terribly sorry my dear sir. I mean madam. **I-I**-oh, God. (R. Gordon)

Yuqoridagi nutqiy parchada i [ai] fonemasining takror ishlatilishi yalinish, iltimos, iltijo, sog'inish, yolvorish kabi qator konnotativ ma'nolarni ifodalaydi.

O'zbek tilidagi **U** tovushi artikulatsion tomondan til oldi va yuqori tor holatda talaffuz qilinishi sababli juda ham cho'zib aytilmaydi. **U** unlisi talaffuzi bilan bog'liq konnotativ ma'nolar ko'p va darajalangan bo'ladi. O'zbek tilidagi **u** fonemasiga xos bo'lgan konnotativ ma'nolar ingliz tilidagi **u** fonemasi talaffuzidagi qo'shimcha ma'nolar bilan chog'ishtirilganda, ularda ba'zi o'xshashlik va farqli tomonlarini kuzatish mumkin. Ingliz tilidagi **u** [ju:] fonemasi ma'no farqlash bilan birga qo'shimcha ma'nolar ham ifodalaydi. Nutq jarayonida **u** [ju:] fonemasini cho'zib talaffuz qilish orqali bir qancha qo'shimcha ma'nolar paydo bo'lishini kuzatish mumkin.

Masalan, - Tush! Where are the others?

- At the front.

- Quite right. Why aren't you...at the front?

- Over age. Fifty seven. (B. Shaw)

Yuqorida keltirilgan qisqa dialogda ataylab **u** [ju:] fonemasini cho'zib talaffuz qilish orqali taajjub, ikkilanish, hayratlanish, ishonchsizlik kabi konnotativ ma'nolar hosil bo'lganligini ko'rish mumkin.

O fonemasining talaffuzi ham ingliz tilida bo'g'in tiplari bilan bevosita bog'liq. Ochiq bo'g'inda **O** unlisining talaffuzi [ou] shaklida bo'lib: no, go, so kabi; yopiq bo'g'inda esa [ɔ] tovushi orqali (not, pot, dog) talaffuz qilinadi. Ammo so'zda o [ou] unli tovushni cho'zib talaffuz qilish orqali qo'rqish, dovdirash, kuchli g'azab kabi qo'shimcha ma'nolar ifodalanadi.

Masalan, Suddenly he cried: Santyago-o-o! (I. Voynich)

Nutqda o [ou] unlisini cho'zish do'q, po'pisa, qahr-g'azab kabi qator konnotativ ma'nolarni ifodalaydi.

Masalan: Don't tell him – Do-o-on't tell him please!

Ushbu misolda esa o [ou] unlisini cho'zish orqali iltimos, yalinish, yolvorish kabi konnotativ ma'nolar ifodalanadi. O'zbek tilidagi **O** unlisi til orqa, quyi keng bo'lib, ba'zi so'zlarda morfologik o'zgarishlarga uchraydi. Jumladan, o>a ga o'tadi: ong-angla, son-sana. Ammo kekxa avlod nutqida onгла, sona shaklida talaffuz qilinishi, qo'shimcha ma'no hosil qilishini ham kuzatish mumkin. **O** fonemasining turli xil talaffuzi natijasida qator konnotativ ma'nolar anglashiladi: **O** deganda quvonch, hayrat, rohatlanish, mazza qilish, lazzatlanish, ishonchsizlik, eslash kabi.

O'zbek tilida **O** unlisining turli o'rinlarda cho'zib talaffuz qilinishi qator qo'shimcha ma'nolarni yuzaga keltiradi.

O...o...odamlar; Buxoro-o-o-o!

Biz tahlil jarayonida ingliz va o'zbek tillaridagi **I**, **U**, **O** unli tovushlar talaffuzi bilan bog'liq konnotativ ma'nolar xususida to'xtaldik.

Xuddi unli tovushlarda bo'lganidek undosh tovushlar talaffuzi bilan bog'liq konnotativ ma'nolar ham mavjud.

Jumladan, ingliz tilidagi quyidagi misollarni tahlil etaylik:

*He surprised and said: **G-g-good morning! C-c-come in!***

Yuqoridagi misoldan ko'rinadiki, badiiy tasvirning nihoyatda ta'sirchanligini ta'minlashda, asar jozibadorligini ta'minlashda tovushlarni cho'zish yoki ikkilantirib talaffuz qilish muhim fonostilistik vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tilida ham undosh fonemalar talaffuzida ularni ikkilantirish orqali qo'shimcha ma'nolar hosil bo'ladi.

Masalan: Odamlar hoh odamlarrrr. Eshitmadim demanglarrrr! Eshitganlar jilmanglarrrr!

R undosh tovushini qavatlash ya'ni ikkilantirish orqali kuchli konnotativ ma'no hosil bo'ladi, bunda sonor tovushning o'rni ham katta hisoblanadi.

Ingliz tilidagi **f** [ef], **b** [bi] fonemalari ham she'riy misralarda ketma-ket kelishi natijasida ohangdorlik yuzaga keladi.

*Masalan: We are foot-slog-slog-slog-slogging,
Foot, foot-foot-foot-slogging over Africa!
Boots-boots-boots-boots-
Moving up and again (R. Kipling)*

Ushbu she'riy parchadagi **f** va **b** tovushlarining takror qo'llanishi diqqatni jalb etish, musiqiylik kabi qator konnotativ ma'nolarni ifodalaydi.

O'zbek tilida qo'shimcha ma'no bo'yoqlari so'z tarkibida ikkita bir xil jarangli yoki sonor undosh tovushlar juft bo'lib talaffuz etilganda ochiq ko'rinadi: muqaddas, musallas, mukarram kabi. Bunday qo'shimcha ma'no xuddi so'zlar qo'shilmasidek, undoshning mag'zida bo'lmay, balki bir xil undosh tovushni bir so'zda ikkilantirib talaffuz qilish va yozish orqali yuzaga keltiriladi.

Masalan, nima? so'roq olmoshidagi "m" undoshini bir o'rinda ikkilantirib nimma tarzida aytish va yozish tasodifiylik, qo'rqinch, hadiksirash, ajablanish, g'azab, yomon ko'rish, uyalish, o'ng'aysizlik, to'lqinlanish, hayratlanish, jazava, kuchli his-hayajon kabi konnotativ ma'nolarni ifodalaydi. Ingliz tilidagi matnlarda ham personajning biror holatdan noroziligini ifodalashda **m** undoshini ikkilantirilishi va yozilishi orqali bir nechta konnotativ ma'nolar ifodalanadi.

Masalan, There was a gastrectomy scar about six months old. "Umm, I said I scratched my head". ("Doctor at large" by R. Gordon)

Zamonaviy tilshunoslikning keying taraqqiyotida fonostilistikaning bir qismi hisoblangan fonopragmatika ham rivojlanmoqda. Nutqda tovush hamda ohangni implitsit (yashirin) maqsadda qo'llanishi natijasida muallif munosabatini ifodalanishi fonopragmatik tahlil obyektidir. Leksema semasida pragmatik semaning hosil bo'lishida fonetik o'zgarishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Bular: tovush o'zgarishi, tovush orttirilishi, tovush tushishi, tovush ikkilanishi bilan yuzaga chiqadi. Tovushlarning o'zgarishi natijasida hosil bo'luvchi ma'nolarni tadqiq etuvchi yo'nalish fonogrammatikadir. Nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari esa fonostilistikada, ularning yozilishi bilan bog'liq jihatlar fonografiyada tadqiq etiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, unli fonemalarning prosodik xususiyatlarga egaligi ularda konnotativ ma'noning kuchli ifodalanishiga sabab bo'lsa, undosh fonemalar sirasidagi sonorlarda shovqinga nisbatan ovoz miqdori ustun bo'lganligi uchun ular tarkibidagi ohangdorlik, shu bilan birga jarangli undoshlarni ikkilantirib talaffuz etilishidan hosil bo'lgan ohangdorlik birgalikda qo'shib kelsa, emotsional-ekspressivlik yanada kuchli ifodalanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, konnotativ ma'no fonema semantik strukturasi tarkibiy qismi bo'lib, ular unli va undosh fonemalarning variantlarida yorqin namoyon bo'ladi. Tovushlardagi ma'no bo'yog'i unlilar talaffuzida juda kuchli va ta'sirchandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A. Hojiyev, Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. - T.: "O'qituvchi", 1985.- B.81
2. M. Mirtojiev, Tovushlardagi ma'nolar, - T.: - "O'zbekiston". 1982.- 24b.
3. Saparova Q., Fonostilistika, fonostilema va talaffuz uslublari//Til va adabiyot ta'limi. 2000.-B.36.
4. Hakimov M., Hakimova M., Fonogrammatikani yuzaga chiqaruvchi vositalar./Stilistika va grammatika. Ilmiy-nazariy konferensiya materiallari (II qism). Samarqand. 2010.-B-32.
5. Haydarov A., Konnotativ ma'noning fonetik vositalarda ifodalanishi, Nomz. diss., avtoreferati. - T.: 2009.- 21b.
6. Yaxshiyeva G., O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar, - T.: "Fan", 1996.
7. Norova M.F. Ingliz va o'zbek tillarida fonostilistik va grafostilistik vositalarning konnotativ ma'nolari. PhD dissertatsiyasi.-Buxoro, 2021.-B.114.
8. Nazarova, N. (2023). Onimik leksemalarning o'ziga xos xususiyatlari. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 34(34).
9. Nazarova, N. (2022). Antroponimlarning o'rganilishi. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 110-112.
10. Ahrorova, N. N., & Niginabonu, Y. (2022). English Clubs in Non-Traditional Ways for Young Learners. Miasto Przyszłości, 30, 265-266.

UO'K 37:81

NUTQIY ETIKET VA UNING LISONIY TABIATI

D.I.Haydarova, tayanch doktorant, Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy

Annotatsiya. Mazkur maqolada etiket tushunchasining tilshunoslikdagi mohiyati, nutqiy etiketni o'rganishda pragmatik, sotsiolingvistik, paralingvistik, lingvokulturologik omillar, nutqiy